

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA REFLEKSIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Saymiyeva Nodima Baxodir qizi

Nizomiy nomidagi TDPU

Pedagogika 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini tahlil qilish va boshqarish, o'quvchilarning ehtiyojlariga mos tarzda tashkil etilgan o'quv jarayonining texnologik tomonini ochib beradigan kompetensiya xususan, refleksiv kompetensiya haqida so'z yuritiladi. Har bir o'qituvchining samarali faoliyati nafaqat egallagan bilimiga, balki, refleksiv bilim va malakalariga ham uzviy bog'liqdir. Zero, o'z faoliyatini doimiy kuzatib, tahlil qilishi va kerakli joylarda o'zgarishi pedagog rivojlanishining muhim omillaridan biridir.

Kalit so'zlar: kompetensiya, refleksiv kompetensiya, o'quv jarayoni. malaka, pedagogik faoliyat.

Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida mutaxasislarning tashabbuskorligi, aqliy va ijodkorona faoliyati kasbiy faoliyatning samaradorligi uchun muhim omillardan hisoblanadi. Shu ma'noda har bir mutaxassis keng ko'lamli bilim, malaka va kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak. Xususan, aniq maqsad qo'ya olish, ishni to'g'ri tashkil etish, nazorat qilish, tartibga solish va eng asosiysi, refleksiv mahorat va refleksiv kompetensiya shular jumlasidandir. Zero, o'z - o'zini tahlil qilish va anglash nafaqat shaxsiy rivojlanishni balki, pedagogik faoliyatni, ta'lim jarayonini sezilarli darajada takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotning maqsadi, o'qituvchining refleksiv ko'nikma va malakalarining mohiyatini metateoriya sifatida ochib berishdir. V. Vasilev ta'kidlaganidek,⁹ o'qituvchilik eng refleksiv kasb ekanligi va o'qituvchining refleksiyasi kasbiy kompetensiyasining eng tipik hodisasi va uni kengroq ochib beradigan jihat hisoblanib, biz refleksiyaning bu aspektlariga muammo sifatida kengroq diqqat qaratamiz. Ilmiy aloqalar uchun biz ko'rib chiqayotgan muammo bilan bog'liq asosiy tushunchalar va nazariyalarni sharhlaymiz. Kompetensiya so'zi kompetentlik (kasbiy kompetentlik) atamasidan kelib chiqqan. Ko'plab nashrlarda kasbiy kompetensiya barcha kasblar va mutaxassisliklar uchun umumiy hisoblanadi. Shu o'rinda aytishimiz mumkinki, kompetensiya universal va u turli vaziyatlarda kerakli hamdir. Kompetensiya tushunchasi Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan 1900-yillarning boshlarida ilmiy

⁹ Васильев В. (2018). Рефлексия – виды и механизмы ее реализации. В: Книга о размышлении.

terminologiyaga kiritilgan va u insonning kasbiy faoliyati jarayonida egallangan bilim va ko'nikmalarni safarbar etish shuningdek, muayyan harakatlarni amalga oshirishning umumiy vositalaridan foydalanish qobiliyati sifatida talqin etiladi. E. I. Rogov, N. V. Kuzmina, O. M. Shiyan¹⁰ fikrlariga ko'ra, kasbiy kompetensiya tushunchasi o'qituvchi uchun kasbiy jihatdan belgilab qo'yilgan talablar jamlanmasini anglatadi deya ma'lumot berishgan hamda refleksiya "malakaviy xususiyatlar", "kasbiy tayyorgarlik", "shaxsiy professionalizm", "kasbiylik" kabi bir qancha so'zlar bilan birga keladi. Ushbu tushunchalar o'ziga xos ma'no mazmuniga ega va ular turli xil kontekstlarda qo'llaniladi. Kompetensiya lotincha "competentia" so'zidan olingan bo'lib, "muvofiqlik, layoqat" degan ma'nolarni anglatadi. Shu o'rinda, J. Raven kompetensiyani "shaxsning muayyan vaziyatlarda samarali harakat qilishiga imkon beruvchi bilim, ko'nikma va shaxsiy xususiyatlarning yig'indisi" deb ta'riflaydi. Psixologik lug'atda¹¹ esa kompetensiya deganda ijtimoiy vaziyatlarda o'zini samarali va adekvat tutish qobiliyatiga asoslangan shaxsiyatning murakkab xususiyati tushuniladi.

Kompetentlik tuzilishi haqidagi tasavvurlar uni uchta dispozitsiyaga ajratadi:

1. kognitiv dispozitsiyalar
2. refleksiv dispozitsiya
3. stimul (rag'bat) beruvchi dispozitsiyalar

Psixologiya va xulq - atvor ensiklopediyasiga¹² ko'ra, kompetensiyani aniqlashda quyidagi 3ta jihatga e'tibor qaratishimiz zarur.

- Tegishli qobiliyat va ko'nikmalarga ega bo'lish.
- Yuridik malaka.
- Insonning bilimi u tanlagan kasbga mos kelishi.

Kompetentlik tushunchasi G'arbiy adabiyotlarda 1960-1970-yillarda paydo bo'lgan, keyinchalik esa 1980-yillarning oxirida sovet adabiyotida ham qo'llanila boshlangan. Hattoki, ta'lim tizimida ham maxsus yo'nalish – kompetentlik yondashuvi yuzaga kelib, u umumiy va kasbiy ta'limning muhim tamoyiliga aylangan.¹³

V. Landshyer¹⁴ kompetentlikni kasbiy mahorat darajalari tizimida amalga oshirish va mukammallik o'rtasidagi oraliq holat sifatida ko'rib chiqadi. U iqtisodiy mezonlardan

¹⁰ Рогов Е.И., Кузымина Н.В., Шиян О.М., Ландшир В. (2012). Экономические и гуманитарные исследования регионов. Научнотеоретический журнал. 2, 14 с

¹¹ Дилова М. и Никова Г. (1989). Психологический словарь (перевод с четвертого немецкого издания) Библиографический институт ВЭБ, Лейпциг. 230 с.

¹² Энциклопедия "Психология и поведенческая наука". (2008). София: Наука и искусство. 235 с.

¹³ <http://moyuniver.net/refleksivnaya-kompetenciyaiprofessionalnaya-kompetentnostuchitelya/>

¹⁴ Рогов Е.И., Кузымина Н.В., Шиян О.М., Ландшир В. (2012). Экономические и гуманитарные исследования регионов. Научнотеоретический журнал. 2, 14 с

foydalangan holda, kompetentlikni "maxsus konvertatsiya qobiliyati" uchun zarur shart deya ta'riflaydi. V.N. Vvedenskiy, N.V. Kuzmina, L.M. Mitina, T.G. Brage, E.I. Rogov va boshqa bir nechta olimlarning fikrlariga ko'ra, o'qituvchining kompetensiyasiga quyidagilar kiradi:

- Sharoit va talablarni hisobga olgan holda harakat qilish qobiliyati;
- Bilim, ko'nikma, odatlar, usullar va texnikalar;
- Bilim va ko'nikmalarni samarali qo'llash;
- Qadriyat yo'nalishlari, motivlar va qarashlar;
- Muayyan sohada bilim va tajriba;
- Axborotga ega bo'lish darajasi;
- Kasbiy mahorat darajasi;
- Ijodkorlik (kreativlik);
- Turli muammolarni hal qilishga xizmat qiluvchi sifatlar.

Kompetentlik Vebestr lug'atiga ko'ra,¹⁵ dastlab 1596-yillarda paydo bo'lgan. Bir so'z bilan aytganda, kompetentlik har qanday sohada samarali natijalar imkonini beruvchi bilim va ko'nikmalar majmui hisoblanadi.

Bugungi zamonaviy sharoitda o'qituvchilarning har tomonlama rivojlanishining asoslaridan biri bu kompetentlikdir. Ya'ni, kompetentlik pedagoglarga o'z kasbiy faoliyatlarini to'g'ri va samarali qilib tashkil etish va amalga oshirishga katta imkoniyat beradi. Refleksiya lotincha so'zdan olingan bo'lib, "ortga qaytish" degan ma'noni anglatadi, ya'ni subyektning o'z ichki psixik tuyg'usi, qarashlari va holatlarini tushunish, tahlil qilish tushuniladi. Bunda nafaqat oldin o'rganilgan modellar va usullarni takrorlash, balki yangilarini ham ishlab chiqish, ijodiy yondashuvlarni shakllantirish, hamda doimiy ravishda o'z - o'zini rivojlantirish - ham shaxsiy ham kasbiy rivojlanish talab etiladi. Refleksiv kompetensiya o'qituvchining pedagogik faoliyati va kasbiy mahoratini oshirishning zaruriy shartlaridan biridir. Bu refleksiv psixologiya doirasidagi nisbatan yangi tushuncha bo'lib, uni har bir pedagogning kasbiy sifati tarzida ko'rib chiqish mumkin. Refleksiv kompetensiya ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etishga imkon beradi, o'z - o'zini tahlil qilishga va rivojlantirishga yordam beradi, ijodiy yondashuvni qo'llab - quvvatlaydi. V. A. Metaeva¹⁶ refleksiv kompetensiyani metakomponentlik tarzida ko'rib chiqadi, ya'ni bu shaxsiy va kasbiy rivojlanishning asosiy omillaridan deb qaraydi. Metakomponentlikning alohida jihatlaridan biri shuki, refleksiv kompetensiya boshqa barcha kompetensiyalarni sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, uning rivojlanishi ta'lim va o'z - o'zini o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida

¹⁵ <http://www.webster-dictionary.org/>

¹⁶ Метаева, В. А. (2006). Рефлексия как метакомпетентность, Педагогика, 3, 57-61 с

asosiy rol o'ynaydi. Refleksiv kompetensiya ham psixologik ham pedagogik tayyorgarlikning zaruriy qismi sanaladi. Shu o'rinda aytishimiz mumkinki, ta'limning muhim tarkibiy qismi o'z - o'zini tahlil qilish odatlarining shakllanishidir. Refleksiv kompetensiya pedagogik kasbiy kompetentligida alohida ahamiyatga ega. Pedagogik kompetentlik tuzilmasini o'zida mujassam etuvchi refleksiv ko'nikmalar, odatlar va metodlar yaxlit bir tizimni tashkil etadi. Uning asosiy vazifasi o'z - o'zini hamda o'z faoliyatini tahlil qilish va baholashdi. Nazorat samaradorligi pedagoglarning tafakkur qobiliyatlariga bog'liq bo'lib, bu ularga o'z faoliyatlarini, qarorlari va xatti - harakatlarini ob'ektiv tahlil qilish, o'z ishining to'g'riligi, foydalanilgan metod va tajribalar haqida fikr yuritish imkoniyatlarini beradi.

Refleksiv kompetensiyani rivojlantirishning samarali yo'llaridan biri bu ta'lim jarayonlarida refleksiv ta'lim metodikasidan foydalanish va akmeologik sharoitlarni yaratishdir. Bunga o'qituvchilarning kasbiy faoliyati, kasbiy tajribalari bilan bog'liq muammoli vaziyatlarni yaratish va refleksiv muhitni yaratish kiradi. Shuningdek, ta'lim jarayonlarida refleksiv amaliyotlarni joriy etish ham refleksiv kompetensiyaning rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shadi. Natijada, mavjud muammoli vaziyatlar orqali muammolarni samarali hal qila olish qobiliyati shakllanadi, jamoaviy hamkorlik va shaxsiy tajriba hamda shaxsiy rivojlanish yanada boyitiladi.

Refleksiv kompetentlik pedagogik kasbiy faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, shaxsning kasbiy faoliyatida rivojlanish, o'z - o'zini tahliliy shakllantirish hamda ijodiy yondashuvni ta'minlaydi. Shuningdek, refleksiv kompetensiya shaxsning psixologik jihatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning asosiy jihatlari quyidagilar kiradi:

- o'z - o'zini baholash,
- o'ziga nisbatan tanqidiy yondashish,
- o'z faoliyatini tahlil qilish,
- o'z-o'zini nazorat qilish.

S. V. Sidorov, A. G. Gavrilov¹⁷, I. N. Semenov, A. V. Xutorskiy, S. Yu. Stepanov va boshqa bir qancha tadqiqotchilar o'z tadqiqotlari davomida refleksiv kompetensiyaning tarkibini strukturaviy kontent-analiz orqali o'rganishgan. Shu o'rinda, S. Yu. Stepanov¹⁸ refleksiv ta'lim modelini ishlab chiqdi. Ushbu model doimiy va tizimli fikrlash tamoyiliga asoslanadi va o'z faoliyatini chuqur qayta anglash jarayoni orqali ifodalanadi. Ya'ni ushbu tamoyilning asosiy jihati shundan iboratki, shaxsning tajribasi

¹⁷ Сидоров С.В., Гаврилов А.Г. (2010). Теоретические предпосылки для проектирования рефлексивной компетентности. Мир наука, культура, образование, 1, 253-256 с.

¹⁸ Семенов И. Н., Степанов С. Ю. (1992). Рефлексивная психология и педагогика творческого мышления. Запорожье: ЗГУ. 345 с.

har qanday muammoni ijodiy yo'l bilan hal qilish uchun shunchaki tayyor vosita sifatida emas, balki, mavjud tajriba pedagogning qobiliyatlarini namoyon qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi va refleksiv jarayonni amalga oshiradi.

Raqobatbardosh va malakali mutaxassisni tayyorlashda refleksiv kompetensiyani rivojlantirish bu tizimli omil hisoblanadi va u pedagogning quyi bosqichdan yuqori bosqichga o'tishiga yordam beradi. Bu jarayon xuddiki, "fenomenologik" (yoki mazmuniy) darajadan "aksiologik" (yoki tizimli) darajaga o'tish sifatida qaraladi. Shu o'rinda, M. N. Demidko¹⁹ kasbiy faoliyatning refleksiv - aksiologik tarkibiy qismini ta'minlovchi refleksiv ko'nikmalar guruhiga alohida e'tibor qaratadi va u kasbiy faoliyat tuzilishini quyidagi tarkibiy qismlari yordamida tafsivlaydi:

- maqsad,
- usul yoki metod,
- natija.

Bu tarkibiy qismlarning har biri tegishli refleksiv ko'nikmalar bilan ta'minlanadi. Ta'lim jarayonlarining har qanday bosqichi uchun asosiy va muhim vazifalaridan biri bu o'qituvchilarni o'z faoliyatlari davomida refleksiv kompetensiyasini rivojlantirish va ularni kasbiy tayyorgarligini yanada yaxshilashdir. Chunki refleksiv kompetensiya bu faol tarzda yaratiladigan bilimdir va u o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, ilgari o'rganilgan bilim va tajribalariga bog'liqdir. Refleksiv ta'lim texnologiyalari maxsus vositalar va usullar majmuasini uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda o'qituvchi tomonidan qo'yilgan tahliliy maqsadlar va o'quv jarayoni maqsadlarini amalga oshirish va rivojlantirish imkonini beradi. Bir so'z bilan aytganda, refleksiya umumiy rivojlanish jarayoniga ta'sir qilib, intellektual qobiliyatlarning shakllanishiga xizmat qiladi va quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassam etadi:

- Turli mavzularga tatbiq etish imkoniyati,
- Moslashuvchanlik va o'zgaruvchanlik,
- Bajirilgan harakatlarni anglash va tahlil qilish.

Bundan tashqari, refleksiv kompetensiya quyidagilarni ham o'z ichiga oladi:

- Maqsadlarni to'g'ri belgilash va ularni aniq vazifalarga ajratish
- O'quv dasturi mazmunining belgilangan vazifalarga mos kelishini ta'minlash
- Pedagogik faoliyat vositalari, usullari va metodlarini samarali qo'llash
- Umumiy pedagogik tajriba bilan zamonaviy ilm-fan tomonidan taklif etilgan qonuniyatlar va qoidalarning izchilligiga erishish.

¹⁹ Демидко М. Н. (ред.). (2001). Обучение рефлексивным умениям в средних специальных учебных заведениях: Мн.: РИПО. 200 с.

Refleksiv kompetensiya pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatini baholash, kerakli joylariga o'zgartirish kiritish va tuzatish kabilarni o'z ichiga oladi. Odatda, bu pedagogik muammolarni yechishning yakuniy bosqichi bilan bog'liq bo'lib, kasbiy faoliyat natijalarini sarhisob qilish jarayoni sifatida tushuniladi. Biroq, shu o'rinda aytishimiz mumkinki, hamma o'qituvchilar ham yuqori darajadagi refleksiv kompetensiyaga ega emas, bu esa o'z navbatida refleksiv ko'nikmalarni chuqurroq o'rganish va diagnostika qilish, shuningdek, refleksiv madaniyat va refleksiv kompetensiyani rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Zero, o'z - o'zini tahlil qila olgan, kamchiliklari va yutuqlaridan to'g'ri xulosa qilib baholay olgan pedagoggina nafaqat o'zining shaxsiy va kasbiy faoliyatida balki, o'quv jarayonida o'quvchilar faolligini oshirib, ta'lim sifatiga sezilarli darajada o'z hissalarini qo'shish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Васильев В. (2018). Рефлексия – виды и механизмы ее реализации. В: Книга о размышлении Пловдив, Университетское издательство Паисия Хилендарского. 26-30 с.
2. Введенский В. Н. (2003). Моделирование профессиональной компетентности учителя. Педагогика., 10, 51-55 с.
3. Демидко М. Н. (ред.). (2001). Обучение рефлексивным умениям в средних специальных учебных заведениях: Мн.: РИПО. 200 с.
4. Дилова М. и Никова Г. (1989). Психологический словарь (перевод с четвертого немецкого издания) Библиографический институт ВЭБ, Лейпциг. 230 с.
5. Энциклопедия “Психология и поведенческая наука”. (2008). София: Наука и искусство. 235 с.
6. Метаева, В. А. (2006). Рефлексия как метакомпетентность, Педагогика, 3, 57-61 сс.
7. Рогов Е.И., Кузымина Н.В., Шиян О.М., Ландшир В. (2012). Экономические и гуманитарны исследования регионов. Научнотеоретический журнал. 2, 14 с.
8. Семенов И. Н., Степанов С. Ю. (1992). Рефлексивный психология и педагогика творческого мышления. Запорожье: ЗГУ. 345 с.
9. Сидоров С.В., Гаврилов А.Г. (2010). Теоретические предпосылки для проектирования рефлексивной компетентности. Мир наука, культура, образование, 1, 253-256 с.
10. <http://moyuniver.net/kompetenciyaiprofessionalnaya-kompetentnostuchitelya/>
11. <http://www.webster-dictionary.org/>
12. <http://www.vashpsixolog.ru/lectures-on-the-psychology/134-other-psychology/>
13. http://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Pedagog/slast/03.php